
Toshloq tumanidagi Zamin Aziya Farm infuzion eritmalar ishlab chiqarish korxonasida respublika va viloyat telekanallari muxbirlari, bosma va elektron OAV vakillari uchun press- tur tashkil etildi

Bugun tumandagi "Kelajak" kichik sanoat zonasida "Zamin Aziya Farm" MCHJ tomonidan amalga oshirilgan investision loyiha natijasida barpo etilgan infuzion eritmalar ishlab chiqarish korxonasining faoliyati jurnalistlarga tanishtirildi.

Tadbirkor Xabibullo Ne'matjonovning o'z mablag'lari hamda "Hamkorbank"ning 2,4 million dollar krediti hisobiga tashkil etilgan korxonada 100 ga yaqin yangi ish o'rinlari yaratilgan. Loyiha ko'ra, korxonada Xitoydan keltirilgan zamonaviy uskunalar o'rnatildi.

Shu kuni OAV vakillariga tadbirkor tomonidan flakon infuzion eritmalar ishlab chiqarish quvvatiga ega korxonada faoliyati to'g'risida ma'lumotlar berildi. Jurnalistlar ishlab chiqarish jarayonlari bilan yaqindan tanishdilar.

2023-12-26 15:35:10